

RESEARCH ARTICLE

Ozod Sharafiddinov – Master Translator

Zilola Xujaniyazova

Researcher, Tashkent State University of Oriental Studies Toshkent, Uzbekistan

VOLUME: Special Issue 2026

PAGE: 35-38

Copyright © 2026 European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, this is an open-access article distributed under the terms of the Creative Commons Attribution-NonCommercial-Share Alike 4.0 International License. Licensed under Creative Commons License a Creative Commons Attribution 4.0 International License.

Abstract

This article presents a scholarly analysis of the translation skills of translator Ozod Sharafiddinov. The vivid presentation of lexical richness, stylistic patterns, and expressions in Ozod Sharafiddinov's translations contributed to a clearer and more understandable content for Uzbek readers. He deeply analyzed every phrase and word combination and translated them in accordance with the norms and requirements of the Uzbek language.

KEYWORDS

translation, skill, standards, translator, style, original.

INTRODUCTION

O'zbek tarjimachiligida bir qator mohir va fidoyi tarjimonlarimiz borki, ularning samarali mehnatlari natijasi o'laroq bugun o'zbek tarjimachilik maktabi o'z o'rnini, salohiyati va ahamiyatiga ega. Hozirgi davr mana shu tarjimachiligimizning katta vakillari tajribasini, ular faoliyatini o'rganishga, tadqiq etishni taqazo etadi.

Tarjima – murakkab va o'z o'rnida nozik san'at. Uning mas'uliyati nafaqat tarjima qilinayotgan so'z va gapning ma'nosini to'g'ri bera bilishdangina emas, balki muallif uslubining o'ziga xosligini, ichki energiyasidan kelib chiqadigan eng rangin va nafis xususiyatlarni saqlab qolishdan iboratdir. Binobarin, badiiy ohang, harakat, so'z va so'zlar tizmasining zamirida yashirinib yotgan ichki joziba, milliy kolorit semantik hodisa sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Muallifning so'z tanlash va so'z birlashtirish borasidagi o'ziga xosligi badiiy asarning eng muhim xossasi bo'lgan obrazlilikni, har bir tovush, nuqta va vergulning badiiy funksiyasini to'g'ri aks ettirishida namoyon bo'ladi" [7, 31.]. Ozod Sharafiddinovning tarjima asarlarini ana shu kabi mezonlar talabidan kelib chiqib o'rganadigan bo'lsak, tilimizning mislsiz imkoniyatlari borligini, ana shu til

tilsimi va original g'oyasi bu vosita bilan mutarjim mahorati ila qanday ochilganini yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Tarjima san'atida yozuvchi g'oyasini saqlash muammosi asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Professor N.Komilov fikricha, "Tarjimada asarni qay tarzda tushunishning ahamiyati katta. Chunki tarjimon agar ijodkor niyatlari, g'oyasini behato anglab etsa, ruhiga, ma'nolari olamiga kira olsa va buni o'z ona tilida san'atkorona aks ettirsa, tarjima asliga yaqin, badiiy barkamol bo'ladi". [3, 175.]

Darhaqiqat, asarning nozik ma'nolarini, ijodkor ruhini, asarning kontseptsiyasini to'g'ri idrok qilish va tarjimada asl nusxaning butun kontseptsiyasini aks ettirish oson emas. Sirasini aytganda, Ozod Sharafiddinov mustaqillik yillari sermahsul ijod qilgan zabardast adibdir. U kishining fidokorona mehnatlari natijasi o'laroq, kitob javonlarimiz jahon adabiyotining bir qancha bebaho asarlari hisobiga boyidi.

O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov – zamonaviy o'zbek tanqidchiligi yorqin namoyandasi, atoqli jamoat arbobi, mohir so'z san'atkori edi. Olimning serqirra ijodi ijtimoiy-falsafiy, lingvistik, lingvoslubiy nuqtai nazardan o'rganilishga loyiq mohiyati bilan alohida ajralib turadi. Uning o'tkir falsafiy qiymatga ega va tanqidchilikning yuksak namunasi bo'lgan asarlari, badiiy tarjimalari, poetika va til haqidagi sermazmun maqolalarini o'qigan kitobxon hayratga tushadi. Ozod Sharafiddinovning qalami-da ona tilimiz xazinasidagi har bir so'z yangidan-yangi imkoniyatlarini namoyon qiladi, beqiyos falsafiy mazmun va mohiyat kasb etadi. Filologiya fanlari doktori, professor B.Karimov to'g'ri ta'kidlaganidek: "Ozod Sharafiddinov o'zbek tilining ham jonkuyari edi. Fikrini og'zaki til-da ravon bayon qilganidek, yozma tili, uslubi ham, yozgan barcha asarlarining tili ham nihoyatda jozibali edi. Til to'g'risida qator maxsus maqolalar yozgan ustozning ayni fazilati boshqa ko'pgina olimlarga o'rnak bo'larkidir" [2, 218]. Ozod Sharafiddinovning tarjimonlik faoliyati misolida aytish mumkinki, tarjimada yozuvchi g'oyasini saqlash quyidagi umumiy xususiyatlardan iborat:

- Birinchidan. Tarjimon yozuvchidan kam bo'lmagan darajada fikrlashi va ijodiy faoliyat tajribasiga ega bo'lishi lozim.
- Ikkinchidan. Yozuvchi g'oyasini saqlash uchun tarjimon faol kitobxon bo'lishi va yozuvchining maqsadi teran tushunishi kerak.
- Uchinchidan. Tarjimon yozuvchi g'oyasini saqlash uchun asar obyektini aniq tasavvur qilishi kerak.

Asosiy qism. Tarjimonning "Kitobsiz yashab bo'lmas" risolasini o'qib, unda davrning eng dolzarb masalasi, inson ma'naviy olamining tubanlashuvi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga loqaydlik, bepisandlik singari illatlar yoshlar tarbiyasiga o'z nuqsini solayotganini – buning barchasi esa kitobga bo'lgan munosabatlarimizning o'zgarganidan ekaniga amin bo'lasiz. Aslini olganda materialistik dunyoqarash, markscha-lenincha ta'limot odamlarni e'tiqodsiz insonlarga aylantirdi. Jumladan, bu dunyodan boshqa hayot yo'q degan materialistik qarash zamirida qanchalar dahshatli oqibatlar yotganini qarang. Demak shu hayotda yashab qolish kerak! Harqalay, "yashab qolish" iborasini juda kamdan-kam odamlar ko'proq o'qib,

ko'proq ilm olish kerak, deb tushunadilar.

Ozod Sharafiddinov oddiygina bo'lib tuyulgan voqeaning yonidan befarq o'tib keta olmaydi. Yoshlarning kitobga, ilm olishga bo'lgan loqaydliklariga befarq emas. Buning ostida qanday ijtimoiy ofatlar yotganini teran angelaydi va quyidagi kuyunchak satrlarni bitadi: "...Biz maqolamizga "kitobsiz yashab bo'lmas" deb sarlavha qo'ydik. To'g'risini aytganda, kitobsiz ham bemalol yashab, umr o'tkazsa bo'laveradi. Faqat bu qanday umr bo'ladi? Umrda birorta ham kitob o'qimagan odam, bugungi dunyoda nima degan odam bo'ladi. Kitob o'qimaslik hayotda muqarrar tarzda chalamullalikka, ma'rifatsizlikka, johillikka olib keladi. Bular esa o'z navbatida loqaydlikni, fikrsizlikni, ma'naviy qashshoqlikni tug'diradi. Bu sifatlar bilan manqurtlikning orasi bir qadam xolos"..." [10, 28].

Olim kitob o'qimay qo'yganimizning sabablarini o'tmish tuzum sharoitidan ekanini, gapirilaverib chaynalib ketgan so'zlarda ifoda etib o'tirmaydi. Balki fikrni-fikrga yedirib yuboradi va aytmoqchi bo'lgan fikrini anchayin salmoqdor qilishga erishadi. Bir paytlari kitob o'qishimiz hech kimni unchalik qiziqtirmasdi, maktabda odamlar darslikda bor narsani so'rash bilangana kifoyalanshardi. Ota-onalarimiz esa kundalik daftarimizdagi baholarga qarab ilm darajamizga baho berishardi. Munaqqid mana shularni jamlab, uch og'iz so'zda ifoda etadi: "...bugungi kunda, - deb yozadi u, - mening kitob o'qishim, sening kitob o'qishing, uning kitob o'qishi hammamizning tafakkurimiz, ma'naviyatimiz shaxsiy ish bo'lmay qoldida". Chunki biz buyuk davlat qurmoqchimiz. Ulug'lik bobida ko'p buyuk davlatlarni ham ortda qoldiramiz. Mana shu o'rinda, munaqqid nima uchun maqolaning sarlavhasida Napoleondan iqtibos olgani oydinlashadi. Davlatimizning muqaddas maqsadi – namoyon bo'ladi. Demak biz kuch-qudrat borasida emas, ulug'lik bobida bahslashamiz. Olim hayotni uning bor ziddiyatlari bilan teran angelaydi. Teran mushohada, va bekamu ko'st ifoda etish qobiliyatiga ega. Yoki ustozning shogirdlaridan biri yozganidek, "Ozod Sharafiddinov maqolalarida doimo shiddatli tezkor ohang, iloji boricha jiddiy masalalar xususida fikr yuritish yetakchilik etadi. Olim asarlarida teranlik, dadillik, yahlitlik mavjud" [6, 53.].

Ozod Sharafiddinovning publitsistik maqolalarini alohida-alohida holda olib qarasangiz ham yaxlit bir

asar, ularni jamlab o'qisangiz ham yaxlit bir asar o'qigandek bo'lasiz. Bu adibning mahorati, bu uning ko'rgan kechirganlarini, o'qib-o'rganganlarini bir maqsad, bir ulug'vor g'oyaga xizmat qildirganligida, uning qalamkash sifatidagi mahoratidir. Misol keltiramiz, muallif "Kitobsiz yashab bo'lmas" maqolasida ma'naviyatsiz odam talqinini berganini ko'rdik. "Inson baxt uchun tug'iladi" maqolasidagi quyidagi fikrlar, o'sha jumalarni davomi yoki ularni to'ldirib kelmayaptimi, qarang? "...Inson deganda nimani tushunamiz? Har kuni katta-katta yeb ichishnimi? Aql bovar qilmaydigan hashamat bilan kiyinishnimi? Afsanaviy qasrlarda kimxobu duxobalarga o'ranib yashashnimi? Ha, bular albatta kerak. Lekin, ma'naviyatsiz, inson baxti to'lal bo'lmaydi! Tadbirkor o'z farzandlarining, o'z oila a'zolarining va hamma odamlarning yuziga tik qaray oladigan vijdoni pok odam bo'lmoqi darkor. Bunga erishmoq uchun esa odam pul sanash, ishning ko'zini bilishdan tashqari, benihoya bilimdon, saviyasi yuksak, niyatlari pok, bir so'z bilan aytganda, teran ma'naviyat egasi bo'lishi lozim". [11, 62]

Ozod Sharafiddinovning publitsistik maqolalari uchun xarakterli bo'lgan umumiy bir jihat bor. U kishi qaysi mavzuda qalam tebratmasin, bugunning eng dolzarb masalasi – ma'naviyat masalasi doimo oldingi safda turadi. Sirasini aytganda publitsistika davrning hozirjavob turi bo'lib hisoblanadi. U axborotlashtirish jarayonlari hukmronlik qilayotgan bugungi kunlarda, peshqadamlikni qo'lga olgani, badiiy ijodan anchayin o'zib ketgani ham sir emas.

Ta'kidlanganlardan ma'lum bo'ladiki, tarjimada yozuvchi g'oyasini saqlash uchun tarjimon ijodiy faoliyat tajribasiga ega bo'lishi lozim. Bu masalaning bir tomoni. Ikkinchi masala shundaki, tarjimada yozuvchi g'oyasini saqlash uchun tarjimon kitobxon bo'lishi shart. Bu borada Ozod Sharafiddinov o'z tajribasidan kelib chiqib deydi: "Abdulla Qahhor kitob o'qishni yozuvchilik mahoratini egallashining eng zarur shartlaridan biri deb bilar edi. Afsuski yozuvchilar o'rtasida ham, tanqidchilar o'rtasida ham juda ko'p o'qiydigan tom ma'noli ziyoli odamlar bilan birga kitob o'qimaydigan fikri tor, saviyasi past, allaqachon ortda qolib ketganlar ham uchrab turadi. Ular ko'pincha bilimsizliklarini quruq safsata bilan, balandparvoz gaplar bilan niqoblashga urinadilar" [9,92].

Matyoqub Qo'shjonov "Milliy tiklanish" nomli maqolasida yozadi: "...u adabiy jarayonni to'la tushunardi. Xususan, siyosiy ayblar bilan qatag'on qilingan adib va shoirlar ijodini qayta tiklashda jonbozlik ko'rsatdi" [5, 87].

Tarjimonning bu boradagi, Matyoqub Qo'shjonov aytmoqchi "jonbozlik"larini o'tgan asrning 57-yillaridan izlash kerak bo'ladi. 1953-yili "xalqlar dohiysi" I.V.Stalinning o'limidan so'ng jamiyatda bir muddat erkinlik epkinlari esgandek bo'ldi. "Qirol o'ldi, yashasin qirol" deganlardek "markazqom"ning yangi xo'jayinlari o'zlarini avvalgilaridan farqli, demokrat ekanliklarini ko'rsatmoq maqsadida, xalqqa yaqin – xalq manfaatlarini ko'zlab ish qilishlarini namoyon etmoq maqsadidagina ma'lum bir yon berishlariga yo'l qo'ydilar. Ayniqsa, "1957-yili shaxsga siqinish davri qatag'onlarining qoralanishi, qatag'on qurbonlarining oqlanishi shodu xursandchilik bilan kutib olindi" [1, 6.].

Ammo, nohaqdan-nohaq surgunlarda, otuvlarda joni sabil bo'lib ketgan kishilarning ismini oqlash kimga nima berdi. Bo'yniga "xalq dushmani" degan tavqilānat osilgan odamlarning qalbi jarohatlarga to'lib toshgan farzandlari, yaqin qarindoshlari bir oz taskintopgan bo'lsa bordir. NKVD ning jinoiy ish "delo"lari bilan to'lib-toshgan tokchalarini bo'shatishga xizmat qilgandir ammo, jamiyatga u hech nima bermadi. "1958 yilning 31 yanvar kuni O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Cho'lponning adabiy merosini o'rganuvchi komissiya tuzdi. Komissiya raisi yozuvchilar uyushmasining o'sha paytdagi birinchi kotibi Bahrom Rahmonov, a'zolari esa Uyghun, Mirzakalom Ismoilov, G'ulom Karimov va men edim" - deb yozadi O.Sharafiddinov "Cho'lponni anglash" maqolasida. Shundan keyin men Yozuvchilar uyushmasiga bir-ikki murojaat qildim, ortoqlar menga oshiqmaslikni maslahat berishdi" [8,48].

Zero, tarjima asarda yozuvchi g'oyasini saqlash uchun tarjimonning tayyorgarlik darajasi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Buning uchun Ozod Sharafiddinov o'z ijodiy tajribasidan keng foydalangan. Aslida publitsistik asarlar tarjimasida yozuvchi g'oyasini saqlash uchun asarni to'g'ri talqin qilish lozim. Bunda quyidagi metodologiyaga asoslaniladi: – tarjima tilining ravonligini ta'minlash;

- asar tarjimasida original g'oyasi va ruhini saqlab qolish;
- yozuvchi pozitsiyasini tushunish;
- davr uchun zaruriy jihatlarni hisobga olish.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ba'zida original asar uslub jihatidan bo'sh bo'lishi mumkin. Bunday sharoitda tarjimon mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Eng asosiysi – publitsistik asarlar tarjimasida so'zma-so'z tarjima o'zini oqlamaydi. Shu sababli bu o'rinda badiiy – stilistik jihat ustuvorlik qiladi. Ozod Sharafiddinov bu masalani to'g'ri anglab etgan va o'z ijodiy tajribasidan foydalangan holda publitsistik asarlarni g'oyaviy yo'nalishini saqlab qolgan shaklda tarjima qilganligini alohida ta'kidlash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Akram A. (1992). Imperiyacha tafakkur uzoq yashaydimi? // Vatan. N6.
 2. Karimov N. (1998). Oybekning tarjimonlik mahorati. Toshkent.
 3. Komilov N. (1999). Tafakkur karvonlari. – Toshkent: Ma'naviyat.
 4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi №376-sonli "Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'zbek tiliga hamda o'zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
 5. Qo'shjonov M. (2005). Adabiyotga bag'ishlangan hayot // Milliy tiklanish. Toshkent.
 6. Rasulov A. (2001). Iste'dod va e'tiqod. // Fikrlash baxti. Sharq. Toshkent.
 7. Salomov G'. (1979). Tarjimashunoslik asoslari. –Toshkent: O'zbekiston.
 8. Sharafiddinov O. (1997). E'tiqodimni nega o'zgartirdim//Tafakkur. 1997-yil, 1-son.
 9. Sharafiddinov O. (1999). "Tirik satr"larning qismati // Sardaftar sahifalari. M.n. Toshkent.
 10. Sharafiddinov O. (2001). Inson baxt uchun tug'iladi. Toshkent: Ma'naviyat.
- Sharafiddinov O. (2001). Kitobsiz yashab bo'lmas // Ma'naviy kamolot yo'llarida. –Toshkent: Ma'naviyat.